



JINOIY JAZO TAYINLASHNING DOLZARB MUAMMOLARI Aliyev Komronbek Nodirbekovich

TDYU, Jinoyat qonunchiligini qo'llash nazariyasi va amaliyoti yo'nalishi
magistri

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7898360>

ARTICLE INFO

Received: 29th April 2023

Accepted: 04th May 2023

Online: 05th May 2023

KEY WORDS

Jazo tayinlash, Jinoyat kodeksi "umumiy" va "maxsus" qismi, muqobil sanksiya, jazoni yengillashtiruvchi holatlar, jazoni og'irlashtiruvchi holatlar, jinoyatga tayyorgarlik ko'rish, jinoyatga suiqasd qilish, axloq tuzatish ishlari.

ABSTRACT

Ushbu maqolada jazo tayinlashdagi qanday muammolar mavjudligi ko'rib chiqiladi. Shuningdek, ushbu muammolarni hal qilish uchun qonunchilikka qanday o'zgartirishlar kiritish kerakligi haqida so'z yuritiladi.

Kirish. Mamlakatimizda demokratik yangilanishning bugungi bosqichdagi eng muhim yo'nalishlaridan biri, bu – qonun ustuvorligi va qonuniylikni mustahkamlash, shaxs huquq va qonuniy manfaatlarini ishonchli va samarali himoya qilishga qaratilgan sud-huquq tizimini izchil demokratlashtirish va liberallashtirishdan iboratdir.

2022-yil 28-yanvar kuni qabul qilingan "2022—2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi" 60-sonli Prezident farmonining 14-maqсадida ham jinoyat, jinoyat-protsessual va jinoyat ijroiya qonunchiligini takomillashtirish siyosatini izchil davom ettirish, jinoiy jazolar va ularni ijro etish tizimiga insonparvarlik tamoyilini keng joriy etish belgilab qo'yilgan[1].

Shuningdek, 2018-yil 14-may kuni qabul qilingan "Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 3723-sonli Prezident qaroriga ko'ra konsepsiyaning 2.3-bandida jazolar tizimi va ularni tayinlash mexanizmlarini qaytadan ko'rib chiqish, eskirgan hamda zamonaviy talablarga javob bermaydigan jazolar shakli va turlarini chiqarib tashlash vazifasi belgilangan[2].

Aybdor deb topilgan shaxsga adolatli jazo tayinlash juda muhim hisoblanadi. Chunki shaxsga adolatli jazo tayinlanmas ekan, jazo tayinlashdan belgilangan maqsadga, ya'ni mahkumni axloqan tuzatish, uning jinoiy faoliyatni davom ettirishiga to'sqinlik qilish hamda mahkum, shuningdek boshqa shaxslar yangi jinoyat sodir etishining oldini olish maqsadlariga erishib bo'lmaydi. Shuningdek, shaxsga adolatli jazo tayinlanmas ekan, nafaqat shaxsning o'zi, uning oilasi va hatto jamiyatning taqdiriga ham salbiy ta'sir etishi mumkin. Shu sababli jazo tayinlash shaxsni qilmishini kvalifikatsiya qilish kabi ahamiyatli hisoblanadi.



O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi, Jinoyat kodeksi, Jinoyat-ijroiya kodeksi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-maydagi PQ-3723-son qarori, Sudlar tomonidan jinoyat uchun jazo tayinlash amaliyoti to'g'risida plenium qarori va boshqa normativ huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu ushbu tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

Yuqoridagi masalalarning yechimini topish avvalo qonun hujjatlarini tahlil qilish, ularga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishni va bu orqali jazo tayinlashdagi dolzarb muammolarni hal qilishni talab qiladi. Mazkur masalalar o'rganilayotgan mavzuning dolzarbligini belgilab beradi va uning ilmiy va amaliy yo'nalishini tasdiqlaydi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharxi. Jazo tayinlash institutini o'rganish, mavjud muammolar bo'yicha tahlil qilish, shuningdek, bir qator asosiy jihatlarini hisobga olib turli darslik, monografiya va ilmiy ishlar yozilgan. Yurtimiz olimlaridan - M.Rustamboyev, M.Usmonaliyev, A.Yaqubov, M.Botayev, O.Narbutayeva, S.Yakubov, B.Usmanov, M.Nazarov, M.M.Mirzajonov, M.Z.Muqimova tomonidan tayyorlangan ilmiy tadqiqot ishlar, o'quv qo'llanmalar va darsliklarda jazo tayinlashdagi ayrim muammolar o'rganilgan. Jumladan, M.H.Rustambayevning "O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. 2-tom" darsligi, M. Usmonaliyevning "Jinoyat huquqi. Umumiy qism" darsligi, M.M.Mirzajonovning "Jinoyat huquqi. Umumiy qism" darsligi, M.Z.Muqimovanning "Sud-huquq islohotlari va jinoyat qonunini liberallashtirish masalalari" monografiya kabi darslik, o'quv qo'llanmalari va ilmiy maqolalarda jazo tayinlash atroflicha tahlil qilingan.

MDHga azo davlatlar olimlaridan - S.A.Veliyev, D.S.Dyadkin, K.I.Djayanbayev, V.K.Duyukov, S.F.Milyukov, O.V.Starkov, A.F.Mitskevich, V.A.Nikonov, V.N.Orlov, A.A.Ryabinin, M.N.Stanovskiy, A.V.Naumov, Yu.F.Bespalov, A.Yu.Bespalov, I.A.Podroykina, E.N.Jevlakov jinoiy javobgarlik va jazo tayinlashda muammolar o'rganilgan.

Shuningdek, X.Xart (Buyuk Britaniya), G.Rash (AQSH) va S.I. Vaybert (Shvetsiya) ishlarida jazo tayinlash bilan bog'liq muammolarni o'rganishga bag'ishlangan.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolani yozishda tarixiy, sotsiologik, kompleks yondashuv, tizimli-funksional yondashuv, qiyosiy-huquqiy, mantiqiy, ilmiy manbalarni kompleks tadqiq etish, statistik ma'lumotlar tahlili, tizimli tahlil kabi usullar qo'llanildi.

Natija va muhokama. Jinoyat qonunida jinoyat uchun jazo belgilanmaganida, qonun jamiyat, davlat va uning fuqarolari uchun zararli bo'lgan xatti-harakatlarning oddiy sanog'idan iborat bo'lib qolardi, xolos. Shu sababli jinoyat sodir etishda qonunda belgilangan tartibda aybli deb topilgan shaxs jazoga tortilishi kerak.

Jinoyat kodeksining 54-moddasiga asosan Jinoyat Kodeksi [Maxsus qismining](#) jinoyat sodir etganlik uchun javobgarlik nazarda tutilgan moddasida belgilangan doirada [Umumiy qismning](#) qoidalariga muvofiq jazo tayinlaydi [3]. Ma'lumki, Jinoyat qonuni «Maxsus» qismining moddalarini amalga tatbiq qilishning barcha qoidalari uning «Umumiy» qismida ko'rsatilgan. «Maxsus» qism normalarini qo'llashda «Umumiy» qism normalari yo'naltiruvchi va tartibga soluvchi normalar bo'lib hisoblanadi. Demak, «Umumiy» qismning normalari «Maxsus» qismning kaliti hisoblanadi.

Ma'lumki, Jinoyat kodeksi Maxsus qismining moddalaridagi sanksiyalar muqobil sanksiya tariqasida berilgan bo'lib, sud jazo tayinlashda faqat ana shu sanksiyada ko'rsatilgan



jazolardan birini asosiy jazo sifatida tayinlaydi. Bunda sud tayinlash uchun tanlagan jazo turining miqdori va muddati shu sanksiyada ko'rsatilgan doiradan tashqariga chiqmagan bo'lishi kerak.

Endilikda, jinoyat kodeksdan biron-bir moddada tayinlanishi mumkin bo'lgan jazo turlariga e'tibor beraylik. Kodeksning 169-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan o'g'rilik jinoyati uchun bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanishi mumkinligi belgilangan[4].

Demak, bu sanksiyada beshta asosiy jazo ko'rsatilgan. Bunday vaziyatda qanday qoidalarga asosan qaysi jazo turini va uning miqdori yoki muddatini tayinlashi mumkinligini bilib olish kerak.

Jinoyat kodeksi 54-moddasiga ko'ra sud jazo tayinlashda sodir etilgan jinoyatning xususiyati va ijtimoiy xavflilik darajasini, qilmishning sababini, yetkazilgan zararning xususiyati va miqdorini, aybdorning shaxsini hamda jazoni yengillashtiruvchi va og'irlashtiruvchi holatlarni hisobga oladi. Biroq bizning qonunchilikda jazo tayinlashda mahkumning oilasi yoki qaramog'idagi shaxslarning turmush sharoiti ta'sirini hisobga olish, jinoyat sodir etgan shaxsning shaxsiy va iqtisodiy sharoitlari, uning qilmishdan keyingi xatti-harakati, ayniqsa zararni qoplash, jabrlanuvchi bilan yarashish istagi bor yoki yo'qligi inobatga olinishi bizning qonunchilikda aks etmagan. Biroq ushbu holatlar muhim bo'lganligi sababli, kodeksning 54-moddasida aks etishi kerak deb hisoblaymiz.

Kodeksning 55-moddasida yengillashtiruvchi holatlar ro'yxati belgilangan. Biroq sud boshqa holatlarni ham yengillashtiruvchi holat deb topishi mumkin. Biroq bu sudning huquqi bo'lib, bu holatlarni yengillashtiruvchi holat deb topmasligi ham mumkin. Shu sababli yengillashtiruvchi holatlar ro'yxatini iloji boricha to'liqroq qonunchilikda aks etishi kerak deb hisoblaymiz. Shunda sud ushbu yengillashtiruvchi holatlarni inobatga olishga majbur bo'ladi.

Kodeksning 55-moddasida og'irlashtiruvchi holatlar ro'yxati belgilangan bo'lib, sud jazo tayinlashda ushbu moddada nazarda tutilmagan holatlarni og'irlashtiruvchi holat deb topishi mumkin emas. Misol uchun, qonunchilikda faqatgina yosh bola yoki ruhiy holatining buzilganligi aybdorga ayon bo'lgan shaxsdan foydalangan holda sodir etish og'irlashtiruvchi holat sifatida belgilangan. Biroq, amaliyotda shunga guvoh bo'lishimiz mumkinki, ba'zi hollarda shaxs kuchli darajada mast shaxsdan foydalangan holda jinoyat sodir etadi. Bunda mast bo'lgan shaxs o'z qilmishini anglamaydi va osonlikcha shaxsning topshirig'ini bajarishi mumkin. Shu sababli, bizning fikrimizcha ushbu holatni ham og'irlashtiruvchi holat sifatida topilishi kerak.

Yengillashtiruvchi va og'irlashtiruvchi holatlar juda muhim hisoblanib, ularni aniqlash juda muhim hisoblanadi. Ba'zi hollarda sudda shunga guvoh bo'lamizki, shaxsning qilmishida yengillashtiruvchi holatlar mavjud bo'lmaydi va faqat og'irlashtiruvchi holatlar mavjud bo'ladi. Shunday hollarda ham sudlar tomonidan shaxsga minimal jazo turi va minimal sanksiya miqdorida jazo tayinlanadi. Biroq buni noto'g'ri hisoblaymiz va kodeksga quyidagi normani kiritish kerak deb hisoblaymiz: "agar shaxsning qilmishida jazoni yengillashtiruvchi holatlar bo'lmasa va jazoni og'irlashtiruvchi holatlardan kamida bittasini o'z ichiga olgan bo'lsa, eng kam sanksiyada ko'zda tutilgan choradan ko'ra og'irroq jazo tayinlash sud uchun



majburiydir”. Bunday majburiy xarakterdagi normani qonunchilikka kiritish, sudlar tomonidan o‘z vazifasini suiste‘mol qilish, korrupsiya kabi holatlarni oldini olishga xizmat qiladi.

Bizning qonunchilikda shuningdek, tamom bo‘lmagan jinoyatlar uchun jazoning muddati yoki miqdori ushbu Kodeks Maxsus qismining tegishli moddasida nazarda tutilgan eng ko‘p jazoning to‘rtidan uch qismidan oshmasligi kerak, ya‘ni bizning qonunchilikda jinoyatga tayyorgarlik ko‘rganlik va suiqasd qilganlik holatlari bir-biridan ajratilinmagan. To‘g‘ri sud maksimum to‘rtidan uch qismi qo‘llay oladi, ya‘ni masalan, tayyorgarlik ko‘rganlik uchun to‘rtidan bir qismini qo‘llashi ham mumkin. Biroq bu masala sudning huquqi bo‘lib, uning majburiyati hisoblamaydi. O‘zi haqiqatda jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish jinoyatga suiqasd qilishdan ko‘ra ijtimoiy xavfliligi kamroq hisoblanadi. Shu sababli jazo tayinlashda differensiyalash bo‘lishi kerak deb hisoblaymiz.

Shu bilan bir qatorda, kodeksning 60-moddasiga ko‘ra “bir necha hukmlar yuzasidan axloq tuzatish ishlariga yoki xizmat bo‘yicha cheklashga hukm qilinib, ish haqi yoki pul ta‘minotidan ushlab qolishning har xil miqdori belgilangan hollarda bu jazolarning faqat muddatlari qo‘shilishi belgilangan”. Ushbu qoida plenium qaroriga binoan 59-moddada nazarda tutilgan bir necha jinoyat sodir etganlik uchun jazo tayinlashda ham bir xil inobatga olinadi. Biroq axloq tuzatish ishlari va xizmat bo‘yicha cheklashda shaxs ish haqi yoki pul ta‘minotini o‘n foizidan o‘ttiz foizigacha miqdorini davlat daromadi hisobiga ushlab qolishi mumkin. Biroq 60-moddaga asosan faqat muddatlar qo‘shilishi belgilangan. Misol uchun, A shaxsga birinchi jinoiy qilmishi uchun shaxsga 15 foizi belgilangan bo‘lsa, ikkinchi qilmishida 25 foizi belgilanishi mumkin. Sudlar tomonidan jinoyat uchun jazo tayinlash amaliyoti to‘g‘risida oliy sud plenium qarorining 20-bandiga asosan “JK 60-moddasining [5-qismiga](#) ko‘ra, bir necha hukmlar yuzasidan axloq tuzatish ishlariga yoki xizmat bo‘yicha cheklashga hukm qilinib, ish haqi yoki pul ta‘minotidan ushlab qolishning har xil miqdori belgilangan hollarda bu jazolarning faqat muddatlari qo‘shiladi. Shunga ko‘ra, bunday hollarda uzil-kesil axloq tuzatish ishlari jazosi tayinlanganida, ish haqi yoki pul ta‘minotidan ushlab qolishning eng ko‘p bo‘lgan miqdori belgilanishi lozim. Bir necha jinoyat sodir etganlik uchun JK [59-moddasi](#) tartibida jazo tayinlashda ham shu qoidalarga amal qilinishi lozim” [5]. Demak, A shaxsga muddatlar qo‘shilgan holda, ish haqini 25 foizi ushlab qolinadi. Biroq ushbu norma shaxsning ahvolini og‘irlashtiradi va shu sababli buni adolatsiz deb hisoblaymiz. Shu sababli bunday normani o‘zgartirish kerak deb hisoblaymiz.

Biz ushbu maqolada jazo tayinlash bilan bog‘liq ayrim muammolarnigina ko‘rib chiqdik. Aslida, jazo tayinlash institutida muammolar soni ko‘p deb hisoblaymiz.

Xulosa. Demak, jazo tayinlash institutida muammolar mavjud va bu muammolar insonlarning taqdiriga ta‘sir etganligi sababli, ushbu muammolarni hal qilish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shu sababli ushbu muammolarni hal qilish uchun qonunchilikka ayrim o‘zgartirishlar kiritilishi kerak. Shunda jinoyat sodir etishda aybdor deb topilgan shaxslarga adolatli jazo tayinlash imkoniga ega bo‘lamiz.



References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni;
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 14.05.2018 yildagi "Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3723-sonli Qarori;
3. 1994-yil 22-sentabr kuni qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi"ning 54-moddasi;
4. 1994-yil 22-sentabr kuni qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi"ning 169-moddasi;
5. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 03.02.2006 yildagi "Sudlar tomonidan jinoyat uchun jazo tayinlash amaliyoti to'g'risida"gi 1-sonli qarori.